



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshanoy Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
A. S. Umarov	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
Эргашев Серожиддин Султонмuroдович, Маматов Ислombек Ильесович	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
To'ychiyeva Mahfuza Umarmukulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
Elmirzayeva Maftuna Dasmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
Haytbayeva S. R.	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
Kadirova Nigora Saxibjanovna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
Samiyeva Zuleyxa Uktamovna	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
Yuldasheva Dilorm Husniddin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
Toshpulatova Aziza Toyirovna	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
Begmatov Raximkul Olimovich	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
Narziyeva Mastura Sunnatovna	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
Qo'chqorov Nodir Bozorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari	183
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dिल्фуза Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriya bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboyevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



SAHRO GAVHARI: RUSLAR ISTILOSIGACHA BO'LGAN DAVRDA XIVA ME'MORCHILIGI TARIXI

UDK: 72.03(575.1)

Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov

Guliston davlat universiteti, "Amaliy san'at va dizayn" kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligining shakllanishi, shahar tuzilmasi, mudofaa tizimi, saroy va madrasa majmualari hamda badiiy bezak tamoyillari tahlil qilinadi. Mavzu tarixiy-me'moriy yondashuv bilan bir qatorda tasviriy san'at ta'limi, estetik tarbiya va tarixiy qadriyatlarni anglash nuqtai nazaridan ham yoritiladi. Xiva obidalarining shakli tuzilishi, ranglar uyg'unligi, naqsh bezaklari, makon tashkiloti va kompozitsion yechimlari o'quvchi hamda talabalarda milliy merosga ongli munosabatni shakllantirishning muhim vositasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Xiva, Xorazm, Ichan-Qal'a, Dishan-Qal'a, ark, Kalta Minor, koshinkorlik, tasviriy san'at, estetik tarbiya.

Abstract: The article analyzes the formation of Khiva architecture prior to the Russian conquest, including the urban structure, defensive system, palace and madrasah complexes, and principles of artistic decoration. The topic is examined not only through a historical and architectural approach, but also from the perspective of visual arts education, aesthetic upbringing, and the comprehension of historical values. The form, color harmony, ornamental patterns, spatial organization, and compositional features of Khiva's architectural monuments are interpreted as important means of developing a conscious attitude toward national heritage among pupils and students.

Key words: Khiva, Khorezm, Ichan-Kala, Dishan-Kala, ark, Kalta Minor, tilework, visual arts, aesthetic education.

Аннотация: В статье анализируются особенности формирования архитектуры Хивы в период до российского завоевания, её градостроительная структура, оборонительная система, дворцово-медресные комплексы, а также принципы художественного оформления. Тема раскрывается не только с историко-архитектурной точки зрения, но и в аспекте преподавания изобразительного искусства, эстетического воспитания и осмысления историко-культурных ценностей. Формообразование, цветовая гармония, орнаментальные мотивы, пространственная организация и композиционные особенности памятников Хивы рассматриваются как важное средство формирования у школьников и студентов осознанного отношения к национальному наследию.

Ключевые слова: Хива, Хорезм, Ичан-Кала, Дишан-Кала, арк, Кальта-Минор, керамическая облицовка, изобразительное искусство, эстетическое воспитание.

KIRISH

Xiva qadimgi Xorazm vohasining tarixiy xotirasini o'zida jamlagan shahar sifatida Markaziy Osiyo me'morchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. Amudaryoning quyi oqimi, Qizilqum va Qoraqum sahrolari oralig'idagi tabiiy-geografik muhit bu hududda mustahkam devorli, ichki hovlili, yozgi issiq iqlimni hisobga olgan holda qurilgan shaharsozlik an'alarining shakllanishiga zamin yaratgan. Xiva haqida so'z borganda faqat ayrim mashhur obidalar emas, balki ark, shahriston, rabod, darvoza, ko'cha, masjid, madrasa, saroy, bozor va hunarmandchilik muhitidan tashkil topgan yaxlit shahar organizmi nazarda tutiladi. Xiva topografiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shaharning tarixiy qatlamlari bir-birini inkor etmaganini, aksincha, keyingi davr qurilishlari uchun asos vazifasini bajarganini ko'rsatadi ^[1].

Maqola mavzusi ruslar istilosigacha bo'lgan davr bilan chegaralanadi. Bunda 1873-yil tarixiy chegara sifatida olinadi, chunki aynan shu davrdan keyin Xiva xonligining siyosiy maqomi, tashqi aloqalari va me'moriy muhitida yangi omillar kuchaya boshlagan. Demak, tadqiqotning asosiy e'tibori qadimgi manzilgohlardan boshlab XIX asr o'rtalarigacha, ayniqsa Xiva xonligi poytaxt sifatida mustahkamlangan davrgacha bo'lgan me'moriy jarayonlarga qaratiladi. Xorazmning tarixiy-geografik muhitiga oid ma'lumotlar Xivaning shakllanishi tasodifiy hodisa emasligini ^[7], balki suv manbalari, savdo yo'llari, mudofaa ehtiyojlari va hunarmandchilik taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq jarayon bo'lganini anglashga yordam beradi.



Xiva me'morchiligini o'rganishda Ichan-Qal'a alohida manba vazifasini bajaradi. O'zbek turizmi portalida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ichan-Qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi Xorazmning ko'p asrlik tarixini aks ettiruvchi yodgorliklar majmuasi sifatida e'tirof etiladi. Bu holat Xivaning nafaqat mahalliy, balki umumjahon madaniy merosi tizimidagi o'rnini ham ko'rsatadi ^[6].

Xivaga oid ommaviy-ma'rifiy manbalarda ham shahar "ochiq osmon ostidagi muzey" sifatida talqin qilinadi. Mazkur ta'rif ilmiy matnda ehtiyotkorlik bilan qo'llanishi lozim bo'lsa-da, u Xiva me'moriy makonining yaxlit holda saqlanib qolganini ifodalash uchun qulay obraz sifatida xizmat qiladi ^[9].



1-rasm: Xiva mudofaa devorlari va qadimiy shahar muhitining umumiy ko'rinishi

Xiva qadimgi Xorazm vohasining tarixiy xotirasini o'zida jamlagan shahar sifatida Markaziy Osiyo me'morchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. Amudaryoning quyi oqimi, Qizilqum va Qoraqum sahrolari oralig'idagi tabiiy-geografik muhit bu hududda mustahkam devorli, ichki hovlilari, yozgi issiqni hisobga olgan holda qurilgan shaharsozlik an'anasini yuzaga keltirdi. Xiva haqida gap ketganda faqat bir necha mashhur obida emas, balki ark, shahriston, rabod, darvoza, ko'cha, masjid, madrasa, saroy, bozor va hunarmandchilik muhitidan tashkil topgan yaxlit shahar organizmi nazarda tutiladi. Xiva topografiyasi bo'yicha olib borilgan izlanishlar ham shaharning tarixiy qatlamlari bir-birini inkor qilmay, aksincha, keyingi davr qurilishlari uchun asos bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi ^[1].

Maqola mavzusi ruslar istilosigacha bo'lgan davr bilan chegaralanadi. Bunda 1873-yil tarixiy chegara sifatida olinadi, chunki shu davrdan keyin Xiva xonligining siyosiy maqomi, tashqi aloqalari va me'moriy muhitida yangi omillar kuchaya boshlagan. Demak, tadqiqotning asosiy e'tibori qadimgi manzilgohlardan boshlab XIX asr o'rtalarigacha, ayniqsa Xiva xonligi poytaxt sifatida mustahkamlangan davrgacha bo'lgan me'moriy jarayonlarga qaratildi. Xorazmning tarixiy-geografik muhitiga oid ma'lumotlar Xivaning shakllanishi tasodifiy hodisa emasligini ^[7], balki suv, savdo yo'li, mudofaa va hunarmandchilik ehtiyojlari bilan bog'liq jarayon bo'lganini anglashga yordam beradi.

Xiva me'morchiligini o'rganishda Ichan-Qal'a alohida manba vazifasini bajaradi. O'zbek turizmi portalida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ichan-Qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi Xorazmning ko'p asrlik tarixini aks ettiruvchi yodgorliklar majmuasi sifatida qadrlanadi; bu holat Xivaning nafaqat mahalliy, balki umumiy madaniy meros tizimidagi o'rnini ham ko'rsatadi ^[6]. Xivaga oid ommaviy-ma'rifiy manbalarda ham shahar "ochiq osmon ostidagi muzey" sifatida talqin qilinadi. Bunday ta'rif ilmiy matnda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak, biroq u Xiva makonining yaxlit saqlanganini tushuntirish uchun qulay obraz beradi ^[9].



1-rasmda ko'rinib turgan paxsa devorlar Xiva me'morchiligining dastlabki qatlamlarida mudofaa vazifasi ustun bo'lganini eslatadi. Bu holat tasodifiy emas: sahro bilan tutash hududdagi shaharlar ko'p vaqt tashqi xavf, savdo yo'llari nazorati va suv manbalarini himoya qilish ehtiyoji bilan rivojlangan. Shu bois Xiva me'moriy qiyofasining ildizida, avvalo, mustahkamlik, ixchamlik va muhitga moslashish tamoyillari yotadi.

Tadqiqotning maqsadi Xiva me'morchiligining ruslar istilosigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyotini umumiy tavsiflash bilan cheklanmay, uning shaharsozlik, konstruktiv va badiiy xususiyatlarini bir butun tizim sifatida ochib berishdan iborat. Shu maqsadda maqolada Xeyvak qudug'i haqidagi rivoyat, Xorazm shahar madaniyati, Ichan-Qal'a va Dishan-Qal'a tizimi, Juma masjidi, Ko'hna Ark, Toshhovli saroyi, Muhammad Aminxon madrasasi hamda Kalta Minor singari yodgorliklar ilmiy-nazariy va pedagogik-estetik nuqtai nazardan ko'rib chiqildi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar sharhida asosiy e'tibor Xiva me'morchiligini faqat tarixiy obidalar yig'indisi sifatida emas, balki yosh avlod tarbiyasi, milliy qadriyat va badiiy tafakkur bilan bog'liq madaniy hodisa sifatida talqin qilishga qaratildi.

A. Raxmanovning Xiva topografiyasi haqidagi tadqiqoti shahar tuzilmasining tarixiy o'zgarishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Muallifning qarashlari Ichan-Qal'a va Dishan-Qal'a munosabatini oddiy hududiy bo'linish emas, balki tarixiy shahar mexanizmi sifatida ko'rishga imkon beradi [1].

A. Boltayevning Xiva arxitektura qoidalariga bag'ishlangan ishlari esa mahalliy qurilish mantiqi, nisbat, devor, ayvon, bezak va material tanlovi masalalarini izohlashda tayanch manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi [2].

O. Mutalovning Xiva xonligi Olloqulixon davriga oid tadqiqoti XIX asr birinchi yarmidagi siyosiy va madaniy muhitni tushuntirishga yordam beradi. Aynan shu davrda saroy, madrasa, karvonsaroy va savdo inshootlari faollashgan, shahar qiyofasi bugungi ko'rinishga yaqinlashgan [3].

I. Mirzakulovning Kalta Minor haqidagi maqolasi esa Xivaning ramziy yodgorliklaridan biri bo'lgan ushbu minora tarixini badiiy-kompozitsion jihatdan yoritishda qo'llanildi [4].

Abul'oziyning "Shajarayi turk" asari Xorazm va turkiy xalqlar tarixiga oid rivoyat hamda xotiralarni anglash uchun qadimiy yozma manba sifatida muhimdir [5].

Elektron manbalardan ham mavzu doirasida ehtiyotkorlik bilan foydalanildi. O'zbek turizmi portalidagi Ichan-Qal'a haqidagi ma'lumotlar shahar yodgorliklarining bugungi madaniy meros tizimidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi [6].

Xorazmiy.uz saytida keltirilgan tarixiy-geografik ma'lumotlar Xorazm vohasining shakllanishi va qadimiy shahar madaniyati bilan bog'liq umumiy tasavvurni kengaytiradi [7].

A. V. Arapovning O'zbekiston tarixiy yodgorliklariga bag'ishlangan nashri Xiva obidalarini Samarqand, Buxoro va Shahrisabzdagi yodgorliklar bilan qiyoslash uchun muhim manba bo'la oladi [8].

N. Saidning ommaviy-ma'rifiy chiqishlari esa Xivaning bugungi idrok qilinishida turizm, xotira va jamoatchilik qiziqishi qanday rol o'ynashini ko'rsatadi [9].

Maqolaning tasviriy san'at ta'limi bilan bog'langan qismida bir nechta pedagogik va amaliy san'atga oid manbalar tayanch vazifasini bajardi. I. X. Mirzakulov mustaqil ta'limning talabalar ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatadi; bu yondashuv Xiva obidalarini auditoriyadan tashqari kuzatish, tahlil qilish va ijodiy topshiriqlarga aylantirish zarurligini asoslaydi [10].

K. E. Kazakbayevichning usta-shogird maktabi an'analari haqidagi maqolasi bevosita Farg'ona vodiysi kulolchiligiga bag'ishlangan bo'lsa-da, undagi hunarmandchilik maktabi, davomiylik va kasbiy ko'nikma masalalari Xiva ustalari tajribasini talqin qilishda ham yaqin metodik asos beradi [11].

O'zbek yog'och o'ymakorligi san'atiga oid tadqiqot esa Xiva eshiklari, ustunlari va ayvonlaridagi bezaklarni kengroq milliy amaliy san'at jarayoni ichida baholashga yordam beradi [12].

J. N. Pardaboevich tarixiy qadriyatlarni hisobga olgan holda yoshlarni sharqona va zamonaviy ruhda tarbiyalash masalasini ko'taradi. Mazkur yondashuv Xiva me'morchiligiga ham mos keladi, chunki Ichan-Qal'a, Juma masjidi, madrasa va minoralar faqat tarixiy yodgorlik emas, balki xalq xotirasi, didi va hayot tarzini ifodalovchi ta'limiy manbadir [13]. Muallifning tasviriy san'at darslarini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish haqidagi qarashlari Xiva me'morchiligini o'rganishda muhim metodik asos bo'la oladi. Me'moriy obidani ko'rish, undagi kompozitsion muvozanatni anglash, rang va naqsh uyg'unligini tahlil qilish talabaning kuzatuvchanligini kuchaytiradi [14].

Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanish masalasiga bag'ishlangan tadqiqot Xiva me'morchiligining ma'naviy-estetik mazmunini ochishda alohida ahamiyatga ega [15]. Xiva binolaridagi mutanosiblik, bezakdagi me'yor, moviy-yashil ranglar uyg'unligi va yog'och o'ymakorligidagi ritm Sharq estetik tafakkurining amaliy ifodasiga yaqin turadi.



2-rasm: Xorazm vohasining tarixiy-geografik joylashuvi

2-rasmda Xorazm hududining yirik voha sifatidagi o'рни ko'rsatilgan. Bu joylashuv Xivaning savdo yo'llari bilan bog'lanishiga, shu bilan birga, sahro sharoitiga mos mustahkam shahar muhitini shakllantirishiga sabab bo'lgan. Xivaning Buyuk ipak yo'li yo'nalishlari bilan bog'liq shahar sifatida talqin qilinishi ham aynan shu geografik asos bilan izohlanadi. Demak, adabiyotlar tahlili Xiva mavzusini uch yo'nalishda - tarixiy manba, me'moriy shakl va pedagogik-estetik mazmun sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, shaharsozlik-tahliliy, vizual kuzatuv va pedagogik-estetik talqin metodlari qo'llanildi. Tarixiy-qiyosiy metod Xivaning turli davrlardagi me'moriy qatlamlarini bir-biri bilan solishtirishga yordam berdi. Bunda shahar poytaxtga aylanishidan oldingi mudofaa muhiti, XVI-XVII asrlardagi g'ishtli qurilish hamda XIX asr birinchi yarmidagi saroy va madrasa majmualari alohida bosqichlar sifatida ajratildi ^[1].

Shaharsozlik-tahliliy metod orqali Ichan-Qal'a va Dishan-Qal'a tizimi, ark, shahriston, rabod, darvoza, ko'cha, masjid, madrasa hamda savdo inshootlari o'rtasidagi funksional bog'lanish o'rganildi. Har bir obida alohida yodgorlik sifatida emas, balki umumiy shahar mexanizmining bir bo'lagi sifatida ko'rildi. Bu yondashuv Xiva me'morchiligidagi tartib, zichlik va ichki mantiqni aniqlashga xizmat qildi ^[2].

Vizual kuzatuv metodi rasm va fotomateriallarni tahlil qilishda qo'llanildi. Devor shakli, minora silueti, portal mutanosibligi, ustun o'ymakorligi, koshin ranglari va hovli-ayvon tizimi bevosita tasvirlar orqali izohlandi. Tasviriy san'at ta'limida ko'rgazmalilik muhim o'rin tutgani sababli maqolaga kiritilgan rasmlar mavzuni bezash uchun emas, balki fikrni dalillash va o'quvchida aniq tasavvur hosil qilish uchun tanlandi ^[14].

Pedagogik-estetik talqinda Xiva obidalaridagi rang, naqsh, ritm, mutanosiblik va makon tuzilishi Sharq estetik tafakkuri bilan bog'lab tahlil qilindi. Bunday yondashuv me'moriy merosni faqat tarixiy fakt sifatida emas, balki talabning didi, kuzatuvchanligi, kompozitsion fikrlashi va milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantiruvchi manba sifatida baholash imkonini berdi ^[15].

Xronologik chegaralashda ruslar istilosigacha bo'lgan davr asosiy mezon qilib olindi. Shu sababli Islomxo'ja minorasi kabi XX asr boshiga oid yodgorliklar Xiva siluetining muhim belgisi bo'lsa-da, mazkur maqolaning asosiy tahlil maydoniga kiritilmadi. Bu cheklov mavzuning ichki aniqligini saqlash uchun zarur. Maqolada tarixiy manbalar, ilmiy nashrlar, elektron ma'lumotlar va tasviriy materiallar bir-birini to'ldiruvchi manba sifatida qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Xiva me'morchiligining birinchi qatlamida mudofaa va yashash ehtiyoji bir-biridan ajralmagan. Sahro bilan tutash hududda shahar devori nafaqat harbiy himoya, balki ichki tartib, suv manbalari va savdo yo'llarini nazorat qilish vositasi bo'lgan. Paxsa devorlar, burjlar va darvozalar shahar tanasining tashqi qobig'ini tashkil etgan. Bu qobiq ichida diniy, ma'muriy va turarjoy inshootlari asta-sekin joylashib borgan. Xeyvak qudug'i haqidagi rivoyatlar ham Xivaning shakllanishi xalq xotirasida suv, hayot va makon tushunchalari bilan bog'langanini ko'rsatadi ^[5].

Xiva me'morchiligini bunday o'qish, ayniqsa tasviriy san'at yo'nalishida, amaliy ahamiyatga ega: talaba obidani ko'rganida devor balandligini emas, balki masshtab, ritm, rang va bezakning qanday ishlashini ham sezishi kerak. Shunda tarixiy yodgorlik darslikdagi ma'lumot bo'lib qolmaydi, balki kompozitsion fikrlashni shakllantiradigan tirik manbaga aylanadi ^[10].

Ilk o'rta asrlardan boshlab Xiva shahar tuzilmasida ark, shahriston va rabod kabi an'anaviy qismlar shakllanganini ko'rish mumkin. Ark hukmdor hokimiyati va boshqaruv markazi, shahriston ichki hayot va diniy-ma'muriy muhit, rabod esa hunarmandlar, savdogarlar va tashqi iqtisodiy aloqalar maydoni vazifasini bajargan ^[1]. Bu uchlik keyingi davrlarda Ichan-Qal'a va Dishan-Qal'a shaklida yanada aniq ko'rinish oldi.



3-rasm: Ichan-Qal'a shahar to'qimasining panoramali ko'rinishi

Xiva poytaxtga aylangandan so'ng me'moriy jarayon keskin faollashdi. Ko'hna Urganchning siyosiy-iqtisodiy mavqei pasayishi, Amudaryo o'zanidagi o'zgarishlar va Xiva xonligi markazining yangi joyda mustahkamlanishi shahar qurilishida burilish yasadi. XVI-XVII asrlardan boshlab g'ishtli binolar, masjidlar, madrasa va saroylar ko'paydi. Bu davrda Xiva hali keyingi asrlardagidek rang-barang koshinlar shahri emas edi, ammo uning me'moriy fe'li, ya'ni ixchamlik, ichki hovliga tayanish va salobatli devor bilan ishlash usuli shakllanib bo'lgan edi ^[8].

3-rasmda Ichan-Qal'aning zich joylashgan shahar to'qimasi yaqqol seziladi. Xivada binolar orasidagi masofa ko'p hollarda katta emas, lekin bu zichlik tartibsizlik tug'dirmaydi. Aksincha, tor ko'chalar, baland devorlar, ichki hovlilar va ayvonlar issiq iqlimga mos mikroiklim yaratadi. Shahar ichidagi bunday muhit odam harakatiga, soya hosil qilishga va hunarmandchilik hayotining ko'cha bilan bog'lanishiga xizmat qilgan.

Juma masjidi Xiva me'morchiligining eng qadimiy va mazmunli yodgorliklaridan biridir. Uning ustunli yopiq makon sifatida qurilishi Xorazm sharoitiga mos yechimdir: masjid katta hovli ochmasdan, ichki ustunlar tizimi orqali keng jamoat maydoni yaratadi. Juma masjidida 200 dan ortiq yog'och ustun mavjud bo'lib, ularning har biri makon tuzilishida alohida ritm hosil qiladi ^[9]. Ustunlarning ayrimlari turli davrlarga mansub bo'lib, bu masjidni vaqt qatlamlari saqlangan noyob me'moriy hujjatga aylantiradi.



4-rasm: Juma masjidi yog'och ustunlari va o'ymakorlik namunasi

4-rasmda yog'och ustunlarning bezak va konstruksiya sifatida bir vaqtda ishlashi ko'rinadi. Xiva ustalari yog'ochga faqat naqsh tushirmagan, balki ustunning og'irlik ko'tarish vazifasini ham badiiy ko'rinishga aylantirgan. Bu yerda me'morlik va amaliy san'at bir-biridan ajralmaydi: ustun binoni ko'taradi, naqsh esa makonning ruhini belgilaydi. O'zbek yog'och o'ymakorligi bo'yicha tadqiqotlar ham bunday bezaklarda tarixiy ildiz, estetik mezon va ijtimoiy vazifa birga yashashini ko'rsatadi ^[12].

XIX asr birinchi yarmi Xiva me'morchiligining eng sermahsul bosqichlaridan biri bo'ldi. Qo'ng'irotlar sulolasi davrida saroy, madrasa, karvonsaroy va savdo inshootlari ko'paydi. Ayniqsa, Olloqulixon davrida qurilgan Toshhovli saroyi Xiva saroy me'morchiligining murakkab kompozitsion yechimga ega namunasi sifatida ajralib turadi. Uning hovlilar tizimi, ayvonlari, ichki devor bezaklari va xonlik boshqaruvi bilan bog'liq funksional qismlari saroyni faqat yashash joyi emas, balki ma'muriy va tantanali markaz sifatida ham ko'rsatadi ^[3].

Toshhovli saroyida Xiva me'morchiligining muhim tamoyili yaqqol namoyon bo'ladi: tashqi tomonda soddaroq devor, ichkarida esa boy bezak va murakkab makon mavjud. Bu yondashuv shahar iqlimi va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq. Devor tashqi issiq va changdan himoya qiladi, ichki hovli esa soyali, salqin va tartibli yashash maydoni yaratadi. Saroy hovlilarining bir-biriga ulanib ketishi xonlik davridagi ma'muriy-hayotiy tartibni ham aks ettiradi.

Muhammad Aminxon madrasasi va Kalta Minor majmuasi Xivaning me'moriy siluetida alohida o'rin egallaydi. Muhammad Aminxon madrasasi XIX asr o'talarida bunyod etilgan yirik ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, uning oldidagi Kalta Minor tugallanmay qolganiga qaramay, shaharning eng taniqli ramziga aylangan. Reja bo'yicha minora juda baland bo'lishi ko'zlangan, ammo qurilish to'xtab, u taxminan 29 metr balandlikda qolgan ^[4]. Shu holatning o'zi ham Xiva tarixidagi siyosiy va shaxsiy omillar me'moriy jarayonga qanday ta'sir ko'rsatishini anglatadi.



5-rasm: Muhammad Aminxon madrasasi va Kalta Minor majmuasi



5-rasmda Kalta Minorning asosiy badiiy kuchi uning balandligida emas, balki yuzasini qoplagan rang-barang koshinlarida ko'rinadi. Feruza, to'q ko'k, oq va yashil ranglarning almashib kelishi minoraga harakat hissini beradi. Issiq sahro iqlimida bu ranglar ko'zga salqinlik baxsh etadi, shahar muhitiga esa tantanavorlik kiritadi. Xiva koshinkorligi Samarqand yoki Buxorodagi ulkan peshtoqli kompozitsiyalardan farqli ravishda, ko'pincha yaqin masofadan ko'riladigan nozik naqsh va rang muvozanatiga tayanadi. Bu yerda moviy-yashil ohanglar, geometrik ritm, o'simliksimon naqshlar hamda yozuv elementlari binoning umumiy hajmi bilan uyg'unlashib ketadi ^[2]. Natijada bezak devorni bosib ketmaydi, aksincha, uning yuzasini jonlantiradi.




6-rasm: Xiva koshinkorligida moviy-yashil ranglar uyg'unligi

6-rasm Xiva me'morchiligida rangning faqat bezak emas, balki muhit yaratish vositasi ekanini ko'rsatadi. Moviy va feruza ranglar devor yuzasini yengillashtiradi, baland minoralarni osmon bilan bog'laydi, shaharni sahro fonida yanada ravshan ko'rsatadi. Shu ma'noda Xiva koshinlari estetik zavq bilan birga psixologik ta'sir ham beradi. Sharq estetik qarashlarida go'zallik faqat tashqi ko'rinish emas, balki tartib, me'yor va ma'naviy ma'no bilan bog'liq holda tushuniladi; Xiva bezaklarida ham shu tamoyil seziladi ^[15].

Yog'och o'ymakorligi Xiva me'morchilik maktabining yana bir tayanch belgisi hisoblanadi. Eshik, darvoza, ustun va ayvonlarda uchraydigan islmiy hamda handasiy naqshlar ko'pincha chuqur o'yma usulida ishlangan. Bu naqshlar bino egasining mavqei, ustaning mahorati va mahalliy san'at didini ko'rsatadi. Eng muhimi, yog'och bezak Xivada ganch yoki koshin bilan raqobatlashmaydi, balki ular bilan birga umumiy badiiy muhit yaratadi ^[11].

Usta-shogird an'analari haqidagi tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, bunday hunar maktablari asosan ko'rish, takrorlash, mehnat jarayonida o'rganish va amaliy tajriba orqali yashab kelgan.



7-rasm: Xiva yog'och o'ymakorligi namunasi

7-rasmda ko'rinadigan yog'och o'ymakorligi namunasi Xiva ustalarining chiziq, ritm va mayda detallarga bo'lgan e'tiborini namoyon qiladi. Bunday ustun yoki eshiklar me'moriy inshootni bezashdan tashqari, uying ichki madaniy muhitini ham shakllantirgan. Xivada hunarmandchilik va me'morchilik bir-biriga juda yaqin bo'lgani uchun har bir bezak amaliy vazifa bilan bog'langan.



Tahlil natijasida Xiva me'morchiligi bo'yicha bir necha asosiy xulosalar aniqlandi. Birinchidan, ruslar istilosigacha bo'lgan Xiva me'morchiligi mudofaa ehtiyoji, iqlim sharoiti va savdo yo'llari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ikkinchidan, Ichan-Qal'a va Dishan-Qal'a tizimi Xivani oddiy qal'a emas, balki funksional qatlamlarga ega shahar sifatida ko'rsatadi. Uchinchidan, Juma masjidi, Toshhovli saroyi, Muhammad Aminxon madrasasi va Kalta Minor Xiva me'morchiligining turli tomonlarini - diniy, saroy, ta'limiy va ramziy qirralarini ochib beradi. To'rtinchidan, Xiva me'morchilik maktabida paxsa, pishgan g'isht, yog'och, koshin va bo'yoq alohida-alohida emas, balki bir butun kompozitsiya tarkibida qo'llanilgan. Beshinchidan, Xiva bezagi ko'pincha mahobatni ko'rsatishdan ko'ra muhit yaratishga xizmat qiladi. Bu holat tasviriy san'at mashg'ulotlarida me'moriy merosni chizish, tahlil qilish va kompozitsion fikrlashni rivojlantirish uchun qulay metodik imkoniyat yaratadi^[14].

Shu bois bu shahar "ochiq osmon ostidagi muzey" deb atalganida, faqat qadimiy binolar saqlanib qolgani emas, balki butun shahar makoni tarixiy yaxlitlikni saqlagani nazarda tutiladi. Xiva me'morchiligini o'rganish o'quvchi va talabada tarixiy xotiraga hurmat, milliy san'atga qiziqish hamda ko'rganini tahlil qilish ko'nikmasini kuchaytiradi [13]. Tarixiy qadriyatlarga tayanib tarbiya berish haqidagi qarashlar aynan shunday jarayonda amaliy mazmun kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ruslar istilosigacha bo'lgan Xiva me'morchiligi qadimgi Xorazm shaharsozligi, islomiy me'moriy an'ana, mahalliy iqlim va hunarmandchilik tajribasining tabiiy sintezidir. Bu me'morchilikda eng avvalo hayotiy zarurat ko'rinadi: devor himoya qiladi, tor ko'cha soya beradi, hovli salqinlik yaratadi, ayvon shamolni tutadi, koshin shahar qiyofasini yorqinlashtiradi, yog'och ustun esa ham konstruksiya, ham san'at asari bo'lib xizmat qiladi.

Xiva me'morchiligining kuchi uning alohida yodgorliklarida emas, balki ularning bir-biri bilan bog'langan holda yashashidir. Ichan-Qal'a ichiga kirgan odam saroy, madrasa, masjid yoki minorani alohida tomosha qilmaydi; u butun shahar muhitini, qadimiy ko'chaning torligini, devor rangini, ustun soyasini va koshin jilosini birgalikda his qiladi. Shu sababli Xiva me'morchilik merosi bugungi kunda ham ilmiy o'rganish, restavratsiya, dizayn ta'limi va madaniy turizm uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

Maqolada foydalanilgan adabiyotlar Xiva mavzusiga turli tomondan yondashish imkonini berdi: tarixiy-topografik manbalar shahar tuzilishini tushuntirdi, me'moriy tadqiqotlar obidalar shakli va qurilish tamoyillarini ochdi, pedagogik-estetik manbalar esa mazkur merosning tasviriy san'at ta'limidagi tarbiyaviy qiymatini asoslashga xizmat qildi. Shuning uchun Xiva me'morchiligini faqat o'tmish yodgorligi sifatida emas, balki bugungi ta'lim va madaniy tafakkurga ta'sir etuvchi jonli meros sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рахманов А. К истории топографии Хивы XVI-XX веков // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. - 1997. - № 7-8. - 17 b.
2. Boltayev A. Xiva arxitektura qoidalari. - Toshkent, 2013. - 5 b.
3. Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. - Toshkent, 2005. - 30 b.
4. Mirzakulov I. X. Kalta Minor. Maqola. - 2026.
5. Abulg'oziy. Shajarayi turk. - Toshkent: Cho'lpon, 1992.
6. O'zbek turizm. Ichan-Qal'a. Elektron manba: <https://uzbekistan.travel/uz/o/ichan-qala/>
7. Xorazmiy.uz. Xorazm tarixiga oid ma'lumotlar. Elektron manba: <http://xorazmiy.uz/uz/pages/index?name=16>
8. Арапов А. В. Исторические памятники Узбекистана: Ташкент, Самарканд, Бухара, Хива, Шахрисабз. - Ташкент: СМИА-АСИА, 2014.
9. Nurmuhhammad Said. Xiva va Ichan-Qal'a mavzusiga oid ma'rifiy materiallar. Manba: <https://kun.uz/>
10. Mirzakulov I. X. Amaliy san'at yo'nalishida mustaqil ta'limning talabalarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. - 2025. - T. 8. - № 1. - S. 483-486.
11. Kazakbayevich K. E. Farg'ona vodiysi kulolchiligida usta-shogird maktabi an'analari // Masters. - 2025. - T. 3. - № 4. - S. 42-48.
12. Kazakbayevich K. E. va boshq. O'zbek yog'och o'ymakorligi san'ati: tarixiy ildizlari, estetik ahamiyati va ijtimoiy funksiyalari // Modern education and development. - 2025. - T. 25. - № 4. - S. 163-166.
13. Pardaboevich J. N. Education of Young People in Eastern and Modern Spirit Taking Historical Values into Account // Innovative Science in Modern Research. - 2023. - C. 156-157.
14. Pardaboevich J. N. Organizing visual arts lessons and enhancing their effectiveness based on modern pedagogical requirements // conference of modern science & pedagogy. - 2025. - T. 1. - № 5. - C. 162-166.
15. Pardaboevich J. N. Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). - 2024. - T. 3. - C. 9-9.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.